

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

DAVLATNING TASHQI FUNKSIYALARI

A'zamova Nilufarxon Adhamjon qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi 1-bosqich 32-guruh o‘quvchisi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif tomonidan davlat va huquq nazariyasida muhim institutlardan biri bo‘lgan davlat funksiyasi hamda davlatning tashqi funksiyalari, ularning mazmun-mohiyati, turlari, olimlarning ilmiy fikrlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, davlat funksiyasi, davlatning tashqi funksiyasi, mudofaa funksiyasi, iqtisodiy hamkorlik, madaniy hamkorlik, siyosiy hamkorlik, atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha hamkorlik.

Аннотация:

В данной статье автором рассматривается функция государства как одного из важнейших институтов в теории государства и права, а также внешние функции государства, их содержание, виды, научные взгляды ученых.

Ключевые понятия: государство, государственная функция, внешняя функция государства, оборонная функция, экономическое сотрудничество, культурное сотрудничество, политическое сотрудничество, экологическое сотрудничество.

Abstract:

In this article, the author examines the function of the state as one of the most important institutions in the theory of state and law, as well as the external functions of the state, their content, types, and scientific views of scientists.

Key concepts: state, state function, external function of State, defense function, economic cooperation, cultural cooperation, political cooperation, environmental protection.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ma'lumki, davlat va huquq nazariyasida davlat va davlat funksiyalari bilan bog'liq masalalar biz o'quvchilar uchun alohida qiziqarli mavzulardan biri sifatida ahamiyatlidir. Bu mavzularni o'rganish jarayonida, avvalo, davlat tushunchasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlat tushunchasi, uning mohiyati, belgilari, shakllari va boshqa bir qator masalalarda turli davr va makonning taniqli huquqshunos olimlari o'z tadqiqotlari natijasida xulosaga kelgan o'ziga xos ilmiy qarash va fikrlarini bayon etganlar. Bugungi ilmiy tadqiqotlar global taraqqiy topgan bir davrda davlat tushunchasiga ijtimoiy, sinfiy va sof yuridik nuqtai nazardan ta'rif berishda yondashuvlar mavjud bo'lib, umumijtimoiy jihatdan, davlat – bu muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv apparatiga ega bo'lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turadigan siyosiy tashkilot¹ sifatida e'tirof etgan olimlarimizning fikrlariga qo'shilish o'rinli degan fikrdamiz.

Tabiiyki, davlat butun jamiyat va barcha fuqarolarning siyosiy tashkiloti sifatida muhim ijtimoiy ishlarni boshqaradi hamda jamiyatning bir butunligini ta'minlash barobarida jamiyat hayotdagi muhim bo'lgan funksiyalarni bajaradi.

“Funksiya” so‘zi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “faoliyat” degan ma‘noni anglatadi. Zero, funksiya deganda biron-bir obyektning xususiyatlarini muayyan munosabatlar tizimidagi tashqi ifodalanishini tushunamiz. Demak, funksiya muayyan vakolat doirasidan kelib chiquvchi faoliyatdir deyishi mumkin.

Davlat funksiyalari haqida so‘z yuritganda, davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishi uchun ma‘lum bir vazifalarni hal qilishi lozim, bu esa, o‘z navbatida, ushbu vazifalarni bajarishga qaratilgan tegishli funksiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi.² Insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida davlatlar mavjud obyektiv sharoitdan kelib chiqqan holda o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarning mohiyatiga mos ravishda faoliyat yuritib kelganligini e'tirof etish mumkin.

Ilmiy adabiyotlardan bilamizki, davlat funksiyalari – bu davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridir. Huquqshunos olimlarimiz tomonidan yozilgan ilmiy adabiyotlarda davlat funksiyalari asosan quyidagi to‘rt asosiy guruhga tasniflanishini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

a) faoliyat doirasi bo‘yicha;

¹ Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. –Toshkent: TDYU, 2019. 35-b.

² Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. –Toshkent: TDYU, 2019. 45-b.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

b) amal qilishining davomiyligi bo'yicha;

v) ijtimoiy ahamiyati bo'yicha;

g) amalga oshirish shakllari bo'yicha.³

Biz ushbu maqolada davlatning aynan tashqi funksiyalari xususida so'z yuritish istagida aytmoqchimizki, davlatning faoliyat doirasi bo'yicha funksiyalari ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi.

Tashqi funksiyalar bevosita xalqaro-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida ishtirok etayotgan davlatning davlatlararo miqyosdagi vazifalarni hal qilishi bilan bog'liq funksiyalari hisoblanadi.

A. Saidov va U. Tadjixanovlar davlatning tashqi funksiyalari doirasiga tinchlik va birgalikda tinch yashash uchun kurash, mamlakatni tashqaridan bo'ladigan hujumdan mudofaa qilish, jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan iqtisodiy, madaniy hamkorlik va siyosiy hamdo'stlik, dunyo mamlakatlari bilan atrof tabiiy muhitni, insonlarning tinchligini muhofaza qilish bo'yicha hamkorlikning turli shakllari⁴ ni kiritadilar.

Umuman olganda, davlatning asosiy tashqi funksiyalariga: boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik funksiyasi; mudofaa funksiyasini kiritish mumkin:

Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik funksiyasi deganda davlatning boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini tushunish lozim. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy darajasi barcha taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmushini integratsiyalashtirish, har bir davlatning alohida ichki muammolari hamda butun jahon hamjamiyatiga xos bo'lgan global muammolarni yana-da samarali hal qilish uchun ularning umumiy sa'y-harakatlarini birlashtirishni obyektiv ravishda taqozo etadi. Bunday hamkorlik integratsiya masalalariga keng va o'zaro foydali yondashuvni, nafaqat muayyan bir mamlakat, balki hamkorlikning boshqa ishtirokchilari manfaatlariga ham javob beradigan oqilona yechimlarni umumiy harakatlar bilan topa bilishni nazarda tutadi.⁵

³ Z.M.Islomov Davlat va huquq: umumnazariy masalalar (Davlat nazariyasi). – T.: 2000. 208-b.

⁴ A.Saidov, U.Tadjixanov. Davlat va huquq asoslari. – T.: 1999. 25-b.

⁵ Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. –Toshkent: TDYU, 2019. 50-b.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O‘z navbatida davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari turli sohalarda amal qilishidan kelib chiqib, davlatlararo munosabatlar quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi: davlatlararo iqtisodiy hamkorlik, siyosiy sohadagi hamkorlik, madaniy va ilmiy-texnik hamkorlik, Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik, ijtimoiy gumanitar hamkorlik va hakoza.

Bulardan davlatlararo iqtisodiy hamkorlik o‘ziga xos ahamiyat kasb etib, unda xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni kooperatsiyalashtirish va ixtisoslashtirish, eng ilg‘or texnologiyalarni ayirboshlash hamda joriy etish, tovar ayriboshini muvofiqlashtirish, moliya-kredit, investitsiya munosabatlarini ravnaq toptirish muhim o‘rin tutadi.

Davlatlarning siyosiy sohadagi hamkorligi davlat hokimiyatining barcha tarmoqlarida, ya’ni parlamentlararo, hukumatlararo darajada amalga oshiriladi. Bu yo‘nalishdagi hamkorlik ham ikki tomonlama hamda xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lish, diplomatik yo‘llar bilan amalga oshiriladi. Madaniy va ilmiy-texnik hamkorlikda BMT doirasida bunday hamkorlikni muvofiqlashtirish bilan ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha ixtisoslashgan muassasalar, Xalqaro atom energetikasi xalqaro agentligi kabi tashkilotlar ishtirokida munosabatlar olib boriladi. Xalqaro va ilmiy-texnik hamkorlik doirasida ilmiy ma’lumotlar, san’at asarlari, musiqa va sahna madaniyati yutuqlarini almashish, o‘zaro mutaxassislar tayyorlash, fan va madaniyat masalalariga doir turli konferensiyalar va festivallar, olimlar, madaniyat arboblari va sportchilar o‘rtasida bevosita aloqalar o‘rnatiladi.

So‘nggi yillarda global mazmun va dolzarblik kasb etib borayotgan tashqi funksiyalaridan biri atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik bo‘lib, u yer yuzida normal ekologik vaziyatni saqlash bo‘yicha ko‘pgina davlatlarning sa’y-harakatlarini birlashtirmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun davlatlarning tibbiyot, biologiya, kosmonavtika va elektronika sohalaridagi eng so‘nggi va ilg‘or yutuqlari qo‘llaniladi. E’tirof etish lozimki, davlatlarning tashqi faoliyati xalqaro huquq normalariga asoslanadi hamda uning negizida jahon hamjamiyatini tashkil qiluvchi barcha xalqlarning milliy manfaatlari va xususiyatlari hisobga olinadi.

Davlat tashqi funksiyasining ikkinchi turi bu mudofaa funksiyasi bo‘lib, uning mohiyatini mamlakatni tashqi tazyiq va tahdidlardan muhofaza qilish tashkil qiladi. Davlatning mudofaa funksiyasi iqtisodiy, siyosiy, diplomatik va harbiy usullar bilan amalga oshiriladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Davlatning mudofaa funksiyasi tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, tinchlik hamda harbiy holatdagi davrlarda qurolli kuchlarning jangovar qudratini saqlash bo'yicha davlat tadbirlari tizimini o'z ichiga oladi. So'zimiz yakunida davlatning tashqi funksiyalari bevosita mamlakatning har tomonlama taraqqiyoti, fuqarolar farovonligi hamda tinchligi va xavfsizligi uchun xizmat qilishini yana bir bor e'tirof etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.
2. Z.M.Islomov Davlat va huquq: umumnazariy masalalar (Davlat nazariyasi). – T.: 2000.
3. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2019.
4. A.Saidov, U.Tadjixanov. Davlat va huquq asoslari. – T.: 1999.

